





SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI




*(2021- yil yanvar-mart oyi
uchun dastlabki
ma'lumot)*



O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.


2021- yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **108 699,2** ming. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **20 561,7** ming. AQSh dollariga yoki **23,3 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-mart, ming. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiqa nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	88 137,5	108 699,2	123,3 %	x
Eksport 	49 642,4	47 675,2	96,0 %	100,0
 <u>tovarlar</u>	49202,5	47 308,1	96,1	99,2
 <u>xizmatlar</u>	439,9	367,1	83,5	0,8
Import	38 495,1	61 024,0	158,5	100,0
 <u>tovarlar</u>	38 480,0	60 978,2	158,5	99,9
 <u>xizmatlar</u>	15,1	45,8	3,0 p.	0,1
 Saldo	11 147,3	-13 348,8	x	x





Ma'lumot uchun: Surxondaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **47 675,2** ming. AQSh dollariga (**4,0** % ga ko'paydi) va import hajmi **61 024,0** ming. AQSh dollariga (**58,5** % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida - **13 348,8** ming. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

SURXONDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-mart, ming. AQSh dollari)



Xitoy Xalq Respublikasi

TSA – 43 941,7
Eksport – 22 281,9
Import – 21 659,8



Rossiya Federatsiyasi

TSA – 10 901,5
Eksport – 4 413,6
Import – 3 290,4



Qozoq'iston

TSA – 10 719,3
Eksport – 1 730,0
Import – 8 989,3



Pokiston

TSA – 10 343,8
Eksport – 7 832,1
Import – 2 511,6



Afq'oniston

TSA – 6 711,3
Eksport – 6 580,6
Import – 130,7



Ukraina

TSA – 6 550,8
Eksport – 93,2
Import – 6 457,6



Turkiya

TSA – 6 035,2
Eksport – 2 650,2
Import – 3 385,1



Germaniya

TSA – 4 289,7
Eksport – 26,0
Import – 4 263,7



Tojikiston

TSA – 2 803,5
Eksport – 884,2
Import – 1 919,3



Eron

TSA – 715,1
Eksport – 0,0
Import – 715,1





Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.


Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Afg'oniston, Pokiston, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, AQSH davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA UCHTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-mart)

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg'oniston (**6 449,9** ming. AQSh dollari), Pokiston (**5 320,5** ming. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (**622,2** ming. AQSh dollari), Singapur (**581,3** ming. AQSh dollari), AQSH (**235,7** ming. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.













Surxondaryo viloyati, jahonning 44 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (**40,4 %**), Rossiya Federatsiyasida (**10,0 %**), Qozog'istonda (**9,9 %**), Pokistonda (**9,5 %**), Afg'oniston (**6,2 %**), Ukraina (**6,0 %**) va Turkiyada (**5,6 %**) qayd etilgan.






SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming. AQSh dollari)

	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Xitoy Xalq Respublikasi	38 702,4	32 188,4	43 941,7
	<i>Eksport</i>	12 504,0	16 198,7	22 281,9
	<i>Import</i>	26 198,4	15 989,7	21 659,8
	Rossiya Federatsiyasi	9 808,7	12 237,2	10 901,5
	<i>Eksport</i>	5 758,0	6 444,9	4 413,6
	<i>Import</i>	4 050,7	5 792,3	6 487,9
	Qozog'iston	12 075,3	7 099,0	10 719,3
	<i>Eksport</i>	5 295,1	1 363,4	1 730,0
	<i>Import</i>	6 780,3	5 735,6	8 989,3
	Pokiston	8 064,1	10 160,3	10 343,8
	<i>Eksport</i>	5 245,1	9 149,4	7 832,1
	<i>Import</i>	2 819,0	1 010,9	2 511,6
	Afg'oniston	7 505,7	11 481,1	6 711,3
	<i>Eksport</i>	7 449,5	11 476,0	6 580,6
	<i>Import</i>	56,2	5,1	130,7
	Ukraina	2 391,9	684,9	6 550,8
	<i>Eksport</i>	226,9	182,8	93,2
	<i>Import</i>	2 164,9	502,1	6 457,6
	Turkiya	3 705,8	5 203,9	6 035,2
	<i>Eksport</i>	746,8	971,6	2 650,2
	<i>Import</i>	2 958,9	4 232,3	3 385,1
	Germaniya	252,9	127,0	4 289,7
	<i>Eksport</i>	67,2	57,5	26,0
	<i>Import</i>	185,7	69,5	4 263,7
	Tojikiston	3 484,1	1 385,9	2 803,5
	<i>Eksport</i>	1 018,9	934,2	884,2
	<i>Import</i>	2 465,2	451,7	1 919,3
	Eron	1 868,7	513,8	715,1
	<i>Eksport</i>	324,6	-	-
	<i>Import</i>	1 544,2	513,8	715,1





SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming. AQSh dollari)


	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Singapur	-	114,6	581,3
	<i>Eksport</i>	-	114,6	581,3
	<i>Import</i>	-	-	-
	Gretsiya	-	-	574,6
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	-	574,6
	Belorussiya	3 980,3	422,3	528,9
	<i>Eksport</i>	158,6	112,2	89,0
	<i>Import</i>	3 821,7	310,1	439,8
	Italiya	320,9	593,9	496,1
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	320,9	593,9	496,1
	Hindiston	963,6	652,1	470,3
	<i>Eksport</i>	-	174,1	-
	<i>Import</i>	963,6	478,0	470,3
	Qirg'iz Respublikasi	82,2	1 999,0	388,4
	<i>Eksport</i>	30,3	1 669,8	-
	<i>Import</i>	52,0	329,3	388,4
	Xorvatiya	-	-	346,0
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	-	346,0
	Avstriya	200,6	64,0	332,1
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	200,6	64,0	332,1
	AQSH	32,1	94,3	235,7
	<i>Eksport</i>	32,1	94,3	235,7
	<i>Import</i>	-	-	-
	Buyuk Britaniya	-	-	206,7
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	-	206,7





SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart 2021- yil)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	108 699,2	123,3
Termiz sh.	12 583,9	98,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	2 405,9	97,6
Angor	2 235,9	83,0
Bandixon	636,9	33,7
Boysun	1 536,1	100,2
Denov	10 675,7	128,0
Jarqo'rg'on	9 734,4	118,1
Qumqo'rg'on	2 616,0	77,9
Qiziriq	10 140,9	3,3 m.
Muzrabot	18 618,0	4,3 m.
Sariosiyo	10 190,0	107,8
Termiz	15 599,8	129,9
Uzun	2 116,0	80,6
Sherobod	6 719,0	74,9
Sho'rchi	2 011,7	44,9

Eng yuqori hajm,
ming. AQSh dollari

Muzrabot - 18 618,0

Termiz - 15 599,8

Termiz sh. - 12 583,9

Eng quyi hajm,
ming. AQSh dollari

Sho'rchi - 2 011,7

Boysun - 1 536,1

Bandixon - 636,9

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Muzrabot tumani **17,1 %** ulush bilan **18 618,0** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Bandixon tumani **0,6 %** ulush bilan **636,9** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.







Surxondaryo viloyati tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021- yilning yanvar-mart oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **29,6 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **2,0 %** ga ko'payib 2019- yilga nisbatan ulushi **2,2 %** ga kamaygan.

SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-mart oylarida 2020- yilga nisbatan **2,0 %** ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi **70,4 %** ni tashkil etdi.





SURXONDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2021- yil yanvar-mart, ming. AQSh dollari)



Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-mart holatiga **32 152,3** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport – **7 312,1** ming. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import – **24 840,2** ming. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**33,9 %**), Qozog'iston (**33,3 %**), Ukraina (**20,4 %**), Tojikiston (**8,7%**) va Belarus Respublikasi (**1,6 %**) davlatlari bilan qayd etildi.





SURXONDARYO VILOYATI XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI *(yanvar-mart, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming. AQSh dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami eksport	49 642,4	47 675,2	123,3	96,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	26 087,0	16 033,7	120,6	61,5	52,5	33,6
Ichimliklar va tamaki	38,2	141,0	-	3,7 m.	0,1	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	1 969,1	4 906,1	80,5	2,5 m.	4,0	10,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	24,3	5,1	47,0	20,8	0,1	-
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	345,2	-	136,2	-	0,7	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	65,6	56,1	21,2 p.	85,5	0,1	0,1
Sanoat tovarlari	18 973,4	24 961,6	123,6	131,6	38,2	52,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	15,1	136,3	14,0	9,0 m.	-	0,3
Turli xil tayyor buyumlar	1 684,6	1 068,1	24,9 p.	63,4	3,4	2,2
Xizmatlar	439,9	367,1	121,4	83,4	0,9	0,8





XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-mart)



XSST bo‘limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	14 424,3	61,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 392,6	63,2
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	199,8	163,8
Xayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	7,4	9,4
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo‘lmagan), qisqichbaqasimonlar malyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar	1,4	71,2
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	0,4	2,0
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	141,0	3,7 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari		
To‘qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	3 131,7	2,5 m.
Moy olinadigan urug‘lar va moy olinadigan mevalar	954,2	4,9 m.
56 bo‘limga kiritilgandan tashqari o‘g‘itlar uchun xom-ashyo va mineral xomashyo (ko‘mir,neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	644,0	3,9 m.
Xayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	176,3	50,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar		
O‘g‘itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	27,4	-
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari;hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	22,8	45,3
Bo‘yoqlar, taninlar va bo‘yoqlar	5,9	-
Birlamchi shaklda bo‘lmagan plastmassalar	0,02	-





XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-mart)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	24 837,0	132,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	111,0	71,6
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	7,2	-
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	3,3	30,8
Teri, boshqa joyda tavsiflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	3,1	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari ham)	117,7	11,7 m.
Aniq sohalar uchun mo'ljallangan mashinalar	18,0	4,0 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob - uskunalari	0,6	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	1 012,6	65,3
Poyabzal	51,9	14,3 m.
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3,2	32,0
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	0,2	-
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	0,1	0,1
Xizmatlar		
Moliyaviy xizmatlar	158,1	92,9
Transport xizmatlari	82,6	45,1
Sayohat	67,1	134,3
Boshqa biznes xizmatlari	59,2	161,3







MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)




So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019- yilning yanvar-martidagi **31,3 %** dan 2021- yilning yanvar-martida **15,3 %** ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **84,7 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-mart, % da)

2021- yilning yanvar-mart oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining **46,7 %**), Pokiston (**16,4 %**), Afg'oniston (**13,8 %**), Rossiya Federatsiyasi (**9,3 %**), Turkiya (**5,6 %**), Qozog'iston (**3,6 %**) va Tojikiston (**1,9 %**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **97,3** foizni tashkil etmoqda.





**SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI
VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart, yillar kesimida)**




Davlatlar	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	16 198,7	22 281,9	129,5	137,6	1	1
Pokiston	9 149,4	7 832,1	174,4	85,6	3	2
Afg'oniston	11 476,0	6 580,6	154,0	57,3	2	3
Rossiya Federatsiyasi	6 444,9	4 413,6	111,9	68,5	4	4
Turkiya	971,6	2 650,2	130,1	2,7 m.	7	5
Qozog'iston	1 363,4	1 730,0	25,7	126,9	6	6
Tojikiston	934,2	884,2	91,7	94,7	8	7
Singapur	114,6	581,3	-	5,1 m.	14	8
AQSH	94,3	235,7	2,9 m.	2,5 m.	16	9
Ukraina	182,8	93,2	80,6	51,0	10	10





SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-mart)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	47 675,2	96,0
Termiz sh.	2 213,7	34,2
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	1 453,0	67,4
Angor	2 149,5	108,4
Bandixon	628,9	58,1
Boysun	999,7	86,1
Denov	6 096,7	139,0
Jarqo'rg'on	7 566,9	119,5
Qumqo'rg'on	1 297,2	38,9
Qiziriq	700,4	27,9
Muzrabot	1 981,6	120,3
Sariosiyo	7 104,2	158,8
Termiz	6 125,5	159,7
Uzun	1 441,8	76,1
Sherobod	5 777,5	95,7
Sho'rchi	1 465,6	73,7

Eng yuqori hajm,
ming. AQSh dollari

Jarqo'rg'on - 7 566,9

Sariosiyo - 7 104,2

Termiz - 6 125,5

Eng quyi hajm,
ming. AQSh dollari

Boysun - 999,7

Qiziriq - 700,4

Bandixon - 628,9

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Jarqo'rg'on tumani **15,9 %** ulush bilan **7 566,9** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat eksporti tarkibida eng quyi ulushni Bandixon tumani **1,3 %** ulush bilan **628,9** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI




Surxondaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **14 470,4** ming. AQSh dollari qiymatli **15 949,1** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan, **61,5** % ni tashkil etdi. Buning asosida **13 103,3** ming AQSh dollari miqdorida **14 677,6** tonna sabzavot, shuningdek **584,6** ming AQSh dollari miqdorida **671,4** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. 2020- yil davri mos ravishda **39,7** % ni va meva va rezavorlarning pasayish darajasi **25,5** % ni tashkil etdi

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2021- yil yanvar-mart)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston, Afg'oniston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston hamda Qozog'iston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, 2021- yil yanvar-mart oyida meva va sabzavotlarning umumiy eksportdagi ulushi **30,4** foizni tashkil etdi.





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-mart)



Davlatlar	ming tonna	ming. AQSh dollari	ulushi, % da *
Pokiston	3 422,5	6 605,5	45,6
Afg'oniston	5 707,0	4 469,0	30,9
Rossiya Federatsiyasi	3 166,5	2 137,5	14,8
Tojikiston	679,6	370,5	2,6
Qozog'iston	2 250,2	347,5	2,4
AQSH	47,1	206,4	1,4
Belarussiya	369,6	89,0	0,6
Ozarbajjon	84,0	84,9	0,6
Ukraina	139,6	35,5	0,2
Gruziya	20,5	35,0	0,2
Polsha	12,9	30,3	0,2
Germaniya	14,0	26,0	0,2
Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)	22,4	22,4	0,2
Iroq	13,2	10,8	0,1

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **45,6 %**), bu Afg'onistonga eksport hajmidan **14,7** baravar ko'pdir.





TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda **26 443,0** ming. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **55,5 %** ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **23,3 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (**86,6 %**), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**5,9 %**) asosiy ulushni egallagan.


TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming. AQSh dollari)



	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Mahsulot nomi	16 526,7	21 448,1	26 443,0
 Paxtadan yigirilgan ip	13 939,8	18 772,5	22 895,6
 Paxra matolari	1 380,7	-	1 559,1
 Ipak va ipak mahsulotlari	1 137,5	1 105,1	895,2
 Tayyor trikotaj va tikuv buyumlari	67,6	1 551,3	1 012,6
 Vatka, kigiz va to'quv bo'lmagan materiallar, arqonlar	-	-	66,0
 Boshqa mahsulotlar	-	-	8,9
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	-	0,3	5,5
 Gilamlar	-	18,9	-





DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI


(yanvar-mart, ming. AQSh dollari)



	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	11 888,6	16 042,0	22 268,6
Rossiya Federatsiyasi	2 811,7	302,6	1 892,9
Pokiston	391,7	2574,7	860,5
Qozog‘iston	-	-	759,3
Turkiya	607,9	784,4	304,5
Tojikiston	-	18,9	300,0
Ukraina	-	-	57,2
Belarussiya	25,1	-	-
Vetnam	520,3	-	-
Hindiston	-	174,1	-
Eron	280,3	-	-
Qirg‘iz Respublikasi	-	1 551,3	-

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (**22 268,6** ming. AQSh dollari – **84,2 %**), Rossiya Federatsiyasi (**1 892,9** ming. AQSh dollari – **7,2 %**) va Pokiston (**860,5** ming. AQSh dollari – **3,3 %**) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






SURXONDARYO VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-mart)



2021- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi **61 024,0** ming. AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **58,5 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, sanoat tovarlari (**47,4 %**), mashinalar va transport asbob-uskunalari (**32,8 %**) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**11,1 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovarlarning importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-martda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **22 498,2** ming. AQSh dollariga kamayib, **60 978,2** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **45,8** ming. AQSh dollariga yetdi.





SURXONDARYO VILOYATI XSST BOYICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami import	38 495,1	61 024,0	57,9	158,5	100	100
shu jumladan:						
Sanoat tovarlari	11 437,5	28 942,1	136,1	2,5 m.	29,7	47,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	13 912,5	19 989,4	40,4	143,7	36,2	32,8
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6 076,5	6 758,7	52,7	111,2	15,8	11,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3 238,6	2 170,9	125,7	67,0	8,4	3,6
Turli xil tayyor buyumlar	1 876,3	1 421,4	26,5	75,8	4,9	2,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1 054,3	997,2	57,7	94,6	2,7	1,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	768,0	371,5	4,3 p.	48,4	2,0	0,6
Hayvon va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	116,4	327,1	39,3	2,8 m.	0,3	0,5
Xizmatlar	15,1	45,8	69,1	3,0 m.		0,1





XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-mart)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	2 593,9	183,8
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	1 854,9	3,1 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 661,3	3,7 m.
Go'sht va go'sht mahsulotlari	288,2	90,4
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	243,4	7,8
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	51,2	46,6 m.
Turli xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlari	49,4	99,9
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	16,3	106,9
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	983,9	63,5
Xayvonlar va o'simliklardan olinadigan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tavsiflanmagan	834,8	3,5 m.
56-bo'limga kiritilganlardan tashqari o'g'it xomashyosi va mineral xom ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	306,0	50,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	371,5	48,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Kimyoviy mahsulotlar va boshqalar	326,4	3,0 m.
Tibbiy va farmatsevtika mahsulotlari	236,2	112,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	123,5	31,6
Organik kimyoviy moddalar	116,0	140,4
Birlamchi bo'lmagan plastmassalar	108,9	192,5
Norganik kimyoviy moddalar	43,2	2,1 m.
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	37,2	75,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	5,7	12,4






XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-mart)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	24 204,1	2,6 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 267,1	4,1 m.
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall buyumlar	1 180,3	3,0 m.
Probka daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	556,9	7,3 m.
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	352,3	87,4
To'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar va boshqalar	268,6	50,1
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	102,2	128,2
Rangli metallar	10,6	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	12 550,2	3,7 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	4 830,5	76,0
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	2 235,9	105,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunolari	287,7	111,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan elektr mashinalari ,apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari (boshqa toifalarga kiritilmagan elektr maishiy texnika elektr bo'lmagan qismlari)	48,1	21,0
Kanselariya mashinalari ishlab chiqaruvchi mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uskunolari	33,2	14,6
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish aparaturalari va uskunolari	2,9	0,2
Metallni qayta ishlash uchun mashinalar	0,9	1,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari boshqa joyda tavsiflanmagan	1 044,9	62,9
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	178,2	2,3 m.
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	165,2	2,2 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	18,3	143,5
Poyabzal	9,0	75,5
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	5,7	86,7







MDH va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushi 40,7:59,3 nisbatni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-mart oylari yakuni bo'yicha Surxondaryo viloyati tomonidan **35** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Importning uchdan bir qismi **53 754,9** ming. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan Xitoy Xalq Respublikasi (jami import 35,5 % ulushi), Qozog'iston (14,7 %), Rossiya Federatsiyasi (10,6 %), Ukraina (10,6 %), Germaniya (7,0 %), Turkiya (5,5 %), Pokiston (4,1 %) kabi yirik hamkor davlatlarga to'g'ri keladi.





SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	38 495,1	61 024,0	57,9	158,5	1	1
Qozog'iston	15 989,7	21 659,8	61,0	135,5	3	2
Rossiya Federatsiyasi	5 735,6	8 989,3	84,6	156,7	2	3
Ukraina	5 792,3	6 487,9	143,0	112,0	10	4
Germaniya	502,1	6 457,6	23,2	12,9 m.	21	5
Turkiya	69,5	4 263,7	37,4	61,4 m.	4	6
Pokiston	4 232,3	3 385,1	143,0	80,0	5	7
Tojikiston	1 010,9	2 511,6	35,9	2,5 m.	13	8
Eron	451,7	1 919,3	18,3	4,2 m.	9	9
Gretsiya	513,8	715,1	33,3	139,2	37	10





SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2021- yil yanvar-mart)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	61 024,0	158,5
Termiz sh. tumanlar:	10 370,2	164,1
Oltinsoy	952,9	3,1 m.
Angor	86,4	12,2
Bandixon	8,0	1,0
Boysun	536,4	143,9
Denov	4 579,0	115,8
Jarqo'rg'on	2 167,5	113,5
Qumqo'rg'on	1 318,8	54,0 m.
Qiziriq	9 440,5	15,8 m.
Muzrabot	16 636,4	6,3 m.
Sariosiyo	3 085,7	62,0
Termiz	9 474,4	115,9
Uzun	674,2	92,6
Sherobod	941,5	32,1
Sho'rchi	546,2	21,9

Eng yuqori hajm,
ming. AQSh dollari

Muzrabot - 16 636,4

Termiz sh. – 10 370,2

Termiz - 9 474,4

Eng quyi hajm,
ming. AQSh dollari

Boysun - 536,4

Angor - 86,4

Bandixon - 8,0

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Muzrabot tumani **27,3** % ulush bilan **16 636,4** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Bandixon tumani **0,01** % ulush bilan **8,0** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:76-225-65-74

